

“Turonbank” ATB _____ BXM rahbariga

ARIZA

so‘m plastik kartochkasi hisobvarag‘ini ochish va plastik kartochkani muomalaga chiqarish to‘g‘risida

Familiyasi															
Ismi															
Sharifi															

Yashash manzili _____ _____ _____ _____ Uyali telefoni _____ Ish telefoni _____	Tug‘ilgan sanasi _____ Pasport Seriya_____ raqami_____ Pasport berilgan joyi: _____ _____ Pasport qachon berilgan_____
---	---

Karta turini tanlang (tasdiq belgisini qo‘ying): ☒

Oylik ish haqi uchun



Pensiya uchun



Stipendiya uchun



Boshqa maqsadlarda



Uzcard



Humo



Uzcard MIR kobeydjing



Humo Visa International

Ish joyi to‘g‘risida ma’lumot*: _____

***“Oylik ish haqi” karta turi tanlansa ma’lumot to‘liq to‘ldirilishi majburiy.**

Men tomonidan ushbu hujjat orqali taqdim etilgan ma’lumotlar asosida mening nomimga so‘m plastik kartochkasi hisobvarag‘ini ochishingizni va plastik kartochkani muomalaga chiqarishingizni so‘rayman.
 Plastik kartochkadan foydalanish yo‘riqnomasi bilan tanishdim.

Mijoz _____
(imzo)

Sana: “____” _____ 202__y.

Bank belgisi

Plastik kartochka h/v	
------------------------------	--

“Turonbank” ATB nomidan _____ “____” _____ 202__y.
(Imzo)

M.O‘.

**“TURONBANK” ATB PLASTIK KARTOCHKALARIDAN
FOYDALANISH VA XIZMAT KO‘RSATISH BO‘YICHA
____- SONLI SHARTNOMA**

_____ sh.

“ ” _____ 202_ y.

“Turonbank” ATB _____ BXM nomidan 20.03.2024-yildagi №72–sonli ishonchnoma asosida ish yurituvchi (keyingi o‘rinda matnda **“Bank”** deb ataladi) bir tomondan va _____ bundan buyon **“Kartochka egasi”** deb yuritiladi, ikkinchi tomondan, ushbu shartnomani quyidagi mazmunda tuzdilar.

SHARTNOMA MAZMUNI

Mazkur shartnoma Bank va plastik kartochka (keyingi o‘rinda matnda **“Kartochka”** deb ataladi) egasi o‘rtasidagi bank tomonidan plastik kartochka egasiga plastik kartochka chiqarish va unga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha munosabatlarni tartibga soladi.

Ushbu shartnoma **“UZCARD”** **“HUMO”** **“MIR”** plastik kartochkasini muomalaga chiqarish va xizmat ko‘rsatish bo‘yicha tuzildi.

ATAMALAR

1. **«MKH»** - kartochka egasining nomiga milliy valyutada ochilgan maxsus kartochka hisobvarag‘i.
2. **«Shartnoma»** - mazkur shartnoma va uning ilovalari.
3. **“SXN”** - kartochkani tovar va xizmatlar uchun to‘lov vositasi sifatida qabul qiluvchi savdo va xizmat ko‘rsatish nuqtalari.
4. **«Kobeydj plastik kartochka»** - **“UZCARD”** va **“HUMO”** to‘lov tizimi infrastrukturasi bank tomonidan emissiya qilingan (chiqarilgan) halqaro to‘lov plastik kartochkalar (**MIR**, **UnionPay**, **VISA** va boshqalar).
5. **«Halqaro plastik kartochka»** - Halqaro va Milliy to‘lov tizimi infrastrukturasi bank tomonidan emissiya qilingan (chiqarilgan) halqaro to‘lov plastik kartochkalar (**HUMO In**, **VISA**, **MasterCard**, **UnionPay** va boshqalar).
6. **«Bank plastik kartochkasi»** - **“UZCARD”** va **“HUMO”** to‘lov tizimi infrastrukturasi bank tomonidan emissiya qilingan (chiqarilgan) plastik kartochkalar.
7. **“Tranzaksiya”** - kartochka egasi tomonidan plastik kartochka orqali amalga oshirilgan har qanday to‘lov (to‘lov terminallari va internet do‘konlar orqali, elektron to‘lovlar) yoki naqd pul chiqim qilinishi bo‘yicha har qanday amaliyotning elektron shakli.
8. **“PIN”** - kartochka egasi tomonidan quyidagi amaliyotlarni amalga oshirilganligini tasdiqlovchi shaxsiy identifikatsiya raqami:
 - Kartochka orqali naqd pul mablag‘larini yechish;
 - Kartochka orqali tovar va xizmatlar uchun to‘lovni amalga oshirish;
 - Kartochka orqali hozirgi kunda mavjud barcha amaliyotlarni amalga oshirish;
 - Kartochka orqali amalga oshirilgan amaliyotlar bo‘yicha ma‘lumot olish.
9. **“To‘lovlarni qaytarish”** - kartochka orqali qonunchilikda belgilangan tartibda o‘tkazilgan operatsiya summasi MKHga o‘tkazilganligini bildiradi.
10. **“Bankomat”** - elektron qurilma bo‘lib, kartochkasi egasiga quyidagi amaliyotlarni amalga oshirish imkonini beradi:
 - o‘ziga o‘zi xizmat ko‘rsatish tartibida naqd pul mablag‘larini yechish va bu haqda chekni shakllantirish;
 - o‘ziga o‘zi xizmat ko‘rsatish rejimida naqdsiz to‘lovlarni amalga oshirish va bu haqda chekni shakllantirish;
 - Kartochka orqali PINni o‘zgartirish, MKH yoki kartochka holati bo‘yicha ma‘lumot olish va boshqa nomoliyaviy amaliyotlarni amalga oshirish.
11. **“Bank tarifi”** - kartochka orqali amalga oshirilayotgan barcha turdagi to‘lovlar va amaliyotlar bo‘yicha bank tomonidan olinadigan xizmat xaqi miqdorlari belgilangan tariflar.
12. **“Infrastruktura”** - kartochkalarni muomalaga chiqarish va ularga xizmat ko‘rsatish to‘lov infrastrukturasi tashkil topgan halqaro va banklararo to‘lov tizimlari (**“UZCARD”**, **“HUMO”**, **“VISA”**, **“MasterCard”**, **“UnionPay”**, **“MIR”** va boshqalar).
13. **“Stop-list”** - infrastrukturada xizmat ko‘rsatilishi bekor qilingan (yo‘qotilgan yoki o‘g‘irlangan) kartochkalarning elektron ro‘yxati. **“Stop-list”**ga kartochka egasining yozma arizasiga muvofiq kiritiladi. Stop-listga kiritilgan kartochka hisobvarag‘idagi qoldiq mablag‘ kartochka stop-listga kiritilgan kundan boshlab 30 kundan so‘ng aktivlashtiriladi (karta turiga qarab, agar kartochka o‘g‘irlangan yoki yo‘qotilgan bo‘lsa, uning o‘rniga yangi kartochka emissiya qilinadi).
14. **“Avtorizatsiya”** - kartochkaga joylashtirilgan ma‘lumotlar asosida Infrastruktura amalga oshiriladigan to‘lovlarning haqiqiylikni qo‘llab-quvvatlashini tekshirishni avtomat tarzda amalga oshirilishi.
15. Mazkur shartnomada **“Kartochka”** va **“hisobvaraq”** so‘zlarining qo‘llanilishi ushbu shartnoma asosida kartochka egasiga muomalaga chiqarilgan barcha bank plastik kartochkalarga nisbatan qo‘llaniladi.

1. UMUMIY QOIDALAR

- 1.1. Mazkur shartnoma MKHga, kartochka va uning egasiga tadbiiq etilib, bank va kartochka egasining xuquq va majburiyatlarini belgilaydi.
- 1.2. Mijoz plastik kartochka olish uchun ariza bilan murojaat qilgandan keyin unga bankda miliy valyutadagi MKHni ochiladi.
- 1.3. Bank kartochkani kartochka egasining arizasi va mazkur shartnoma asosida muomalaga chiqaradi hamda uni shaxsan kartochka egasiga yoki uning qonuniy vakiliga beradi. Norezident jismoniy shaxsga uning shaxsan ishtirokisiz yoki ishonchnoma asosida bank kartochkasi ochish mumkin emas. Agar kartochka korxonaning bank bilan ish xaqi loyihasi doirasida tuzgan shartnomasiga muvofiq ish haqi va unga tenglashtirilgan mablag‘larni berilishi uchun muomalaga chiqarilgan bo‘lsa, kartochka ishonchnoma va qabul qilish-topshirish dalolatnomaga asosan tashkilotning vakiliga berilishi mumkin.
- 1.4. Kartochka _____ yil muddatga muomalaga chiqariladi hamda uni boshqasiga almashtirilishi uning amal qilish muddati tugaganidan so‘ng kartochka egasining arizasiga asosan amalga oshiriladi.
- 1.5. Bank mazkur shartnoma bo‘yicha ko‘rsatilgan ma‘lum turdagi xizmatlar uchun komissiyani undiradi. Xizmat xaqqlari olinadigan operatsiya turlari va komissiya miqdori bank tarifida belgilanadi.
- 1.6. Kartochka egasi kartochkani yo‘qolganligi (yoki o‘g‘irlanganligi) to‘g‘risida yozma murojaat qilsa, Bank yo‘qotilgan kartochka o‘rniga yangi kartochka ochib berish uchun bank tarifiga asosan komissiya undiradi.

- 1.7. Yo'qotilgan (o'g'irlangan) yoki yaroqsiz holga kelgan kartochka hisob raqamidagi mablag'lar uning o'rniga yangi kartochka emissiya kilingandan so'ng avtomatik ravishda tiklanadi. Agar bu kobeydj yoki halqaro plastik kartochkalar bo'lsa, u holda ushbu kartochkada mablag'lar to'lov tizimining tartibi asosida aks etiriladi. MKHdagi qoldiq mablag' kartochka qoldig'i sifatida asos bo'lmaydi.
- 1.8. Kartochkadan foydalanish jarayonida uch marta noto'g'ri PIN terilganda, kartochka himoyalani (blokirovka) qoladi. Kartochkani himoyalani (blokirovkadan) yechish mijozning arizasiga ko'ra shaxsni tasdiklovchi xujjat asosida amalga oshiriladi.
- 1.9. Mazkur shartnoma shartlariga, jumladan bank tarifiga kiritilgan qo'shimchalar va o'zgartirishlar Bank tomonidan o'zining rasmiy saytida (www.turonbank.uz) va bank binosida joylashgan e'lonlar taxtasida ma'lumotlarni joylashtirish orqali ma'lum qilinadi.
- 1.10. Kartochka egasi kartochkani muomalaga chiqarish uchun bank tariflariga asosan to'lovlarni amalga oshiradi.
- 1.11. Kartochkadan foydalanish yo'riqnomalar, foydalanish qoidalari va to'lov tizimlarining tartiblari asosida amalga oshiriladi.
- 1.12. Kobeydj va Halqaro plastik kartochkalardan O'zbekiston Respublikasidan tashqarida foydalanilganda, qabul qiluvchi mamlakatning valyutasiga belgilangan kurs bo'yicha avtomatik tarzda konvertatsiya qilinadi.
- 1.13. Kobeydj va Halqaro plastik kartochkalar orqali amalga oshirilgan operatsiyalar bilan bog'liq nizolar, shu to'lov tizimlarining qoidalari asosida ko'rib chiqiladi. Shuningdek, ushbu kartalar orqali amalga oshirilgan har qanday tranzaksiyalarga 30 (o'ttiz) kalendar kun ichida kartochka egasi tomonidan yozma ravishda asosli e'tiroz bildirilmaganda, ushbu tranzaksiyalar amalga oshirilgan deb hisoblanadi.
- 1.14. Bank kartasini blokka solish Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga hamda terrorizmni va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish sohasidagi qonun hujjatlari talablariga muvofiq amalga oshirilishi mumkin.

2. BANK MAJBURIYATLARI

- 2.1. Bank quyidagi majburiyatlarga ega:
 - 2.1.1. Mijozdan ariza olinganidan va mazkur shartnoma imzolanganidan so'ng kartochka egasi nomiga MKH ochish va kartochkani muomalaga chiqarish;
 - 2.1.2. Agar bankda ochilgan tranzit hisobvaraqlarga jismoniy shaxslarning plastik kartochkalariga kirim qilish uchun kelib tushgan mablag'lar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq amalga oshirilgan bo'lsa, ushbu tranzit hisobvaraqdagi mablag'larni 3 (uch) kun muddatda mijoz hisobvarag'iga kirim qilish;
 - 2.1.3. Kartochka orqali amalga oshirilgan barcha muvaffaqiyatli (avtorizatsiyalangan) tranzaksiyalar miqdori bo'yicha MKH hisob-kitoblarni amalga oshirish;
 - 2.1.4. Kartochka egasining arizasi asosida SMS xizmatini ulab berish (to'lov tizimlarining yo'riqnomasi va qoidalari asosida);
 - 2.1.5. Kartochka egasining yozma ariza asosida bergan topshiriqlari bo'yicha pul mablag'larini boshqa hisobvaraqa ko'chirish yoki hisob-kitoblarni amalga oshirish agar bu O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga zid bo'lmasa;
 - 2.1.6. Kartochka egasining yozma arizasi asosida MKH bo'yicha ko'chirmalar berish;
 - 2.1.7. Kartochka egasi yoki mablag'ni jo'natuvchi tomonidan aniq sabablari ko'rsatilgan yozma xat taqdim etilganidan keyin to'lovlarni qaytarish amaliyotini o'tkazish;
 - 2.1.8. Kartochka egasining kartochkani yo'qolganligi yoki o'g'irlanganligi to'g'risidagi yozma arizasiga asosan kartochkani "stop-list"ga kiritish orqali uning harakatini to'xtatish bo'yicha barcha zaruriy choralarini ko'rish;
 - 2.1.9. Kartochka egasining murojaatini uning arizasi asosida to'lov tizimlarining "Operatsiyalar bo'yicha munozaralarni hal qilish" qoidalari bo'yicha belgilangan muddatlarda ko'rib chiqish.

3. BANK XUQUQLARI

- 3.1. Bankning huquqlari quyidagilardan iborat:
 - 3.1.1. Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga hamda terrorizmni va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish sohasidagi O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq:
 - Mijozni lozim darajada tekshirish uchun hujjatlarni va ma'lumotlarni, shu jumladan bankning ichki Qoidalari doirasida amalga oshirilayotgan operatsiyalar bo'yicha ko'zimcha ma'lumotlarni mijozdan talab qilish;
 - Mijoz tomonidan milliy valyutadagi mablag'larni bank hisobvaraqlariga o'tkazish va valyuta ayirboshlash operatsiyalarini amalga oshirishda, Bank pul mablag'larining kelib chiqishi qonuniyligini tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim etilishini talab qilishga haqli.
 - Mijozni lozim darajada tekshirish imkoni bo'lmagan taqdirda, karta hisobvarag'ini ochish va bank kartasini chiqarish yoki karta hisobvarag'i bo'yicha operatsiyalarni amalga oshirishni rad etish yoki bir tarafdama Mijoz bilan tuzilgan shartnomani bekor qilish;
 - O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchiligida belgilangan hollarda karta hisobvarag'i bo'yicha operatsiyalarni amalga oshirishni to'xtatib turish va pul mablag'larini ishga solmay to'xtatib qo'yish;
 - 3.1.2. Istalgan paytda quyidagi holatlarda kartochkani qaytarib olish:
 - Kartochka egasining topshirig'i asosida;
 - Xuquqni muhofaza qilish organlari va sud qarori asosida;
 - Kartochkadan qonunga xilof ravishda foydalanilganligi holatlari mavjudligi yaqqol ma'lum bo'lganda;
 - Shartnoma shartlari buzilganda..
 - 3.1.3. Kartochka orqali oxirgi 6 oy davomida hech qanday amaliyotlar bajarilmaganda va MKH qoldiq mablag' mavjud bo'lmagan taqdirda, kartochkani amal qilish muddati tugaganidan so'ng kartochka egasining ishtirokisiz MKHni yopish;
 - 3.1.4. To'lov tizimlarining qoidalari, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida va bankning ichki me'yoriy hujjatlarida belgilangan tartibda yoki vakolatli organ tomonidan kartochkani bloklash va MKHdagi mablag'larni akseptsiz ravishda yechib olish (qonunchilik doirasida);
 - 3.1.5. Qonunchilikda o'ratilgan tartibda bank tarifini bir tomonlama o'zgartirish;
 - 3.1.6. Kartochka orqali amalga oshirilgan barcha tranzaksiyalar bo'yicha bank tarifi asosida bank komissiyalarini akseptsiz ravishda MKHdan yechib olish;
 - 3.1.7. Kartochka egasi tomonidan mazkur shartnoma shartlari buzilganligi natijasida bankka yetkazilgan moliyaviy yo'qotishlar, xarajatlar va zarar summasini akseptlanmagan tarzda kartochka egasidan undirish;

- 3.1.8. Naqdsiz kelib tushgan mablag'larning qonuniyligini tasdiqlovchi hujjat taqdim etilmasa (shubxali va gumondor), ushbu mablag'larni MKHga kirim qilmaslik yoki qaytarib yuborish;
- 3.1.9. Kartochka egasi tomonidan mazkur shartnomaning 4.1.10 bandi to'liq bajarilmaganda mazkur shartnoma bo'yicha 2-bo'limida ko'rsatib o'tilgan majburiyatlarni bajarmaslik.
- 3.2. Bankning sanksion cheklovlar bilan bog'liq bo'lgan huquqlari:
- 3.2.1. Mijoz yoki u tomonidan amalga oshirilgan operatsiya sanksiya va cheklovlar doirasiga kirsa yoki bunday tushib qolish xavfi mavjud bo'lgan taqdirda, Bank amalga oshirilayotgan operatsiyalarni o'rganish uchun quyidagi harakatlardan birini yoki bir nechtasini bajarishga haqli:
- amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda shartnomani bir tomonlama rad yetish yoki bekor qilish (shartnoma shartlarini bajarishni rad yetish);
 - qo'shimcha ma'lumotlarni so'rab olishi, Mijoz so'rov yuborilgan kundan boshlab uch ish kuni ichida bunday ma'lumotlarni taqdim yetish majburiyatini oladi;
 - operatsiyani o'tkazishni cheklash (rad yetish) va bank kartasini bloklash.
- Bunda, tegishli to'lov hujjati amaldagi qonun hujjatlarida va Bankning ichki Qoidalarida nazarda tutilgan talablarga rioya qilgan holda, bankning sanksion komplayens bo'yicha tarkibiy bo'linmasi tomonidan xulosa olingan paytdan e'tiboran keyingi ish kunidan kechiktirmay ijro etiladi.
- 3.2.2. O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlari asosida norezident-mijoz tomonidan O'zbekiston Respublikasi banklarida hisobvaraqlarni ochish va ulardan foydalanish tartibi yoki xalqaro to'lov tizimining emissiya tartibi o'zgargan taqdirda Bank bir tomonlama ushbu shartnomani o'zgartirish va unga ko'shimchalar kiritish huquqiga ega.
- 3.2.3. Norezident-jismoniy shaxslarga MKHni ochishda ularni "O'z mijozingni bil" (KYC) va "Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish" (AML/SFT) tizimlariga muvofiq bankning sanksion komplayens tarkibiy bo'linmasi tomonidan o'rganish jarayoni tugagandan so'ng amalga oshiriladi.

4. KARTOCHKA EGASINING MAJBURIYATLARI

- 4.1. Kartochka egasi qo'yidagi majburiyatlarga ega:
- 4.1.1. Shartnoma shartlariga rioya qilgan holda kartochkadan foydalanish;
- 4.1.2. 3 (uch) bank kunida shartnoma shartlarini kartochka egasi tomonidan buzilishi natijasida yuzaga kelgan barcha xarajatlarni qoplash;
- 4.1.3. Kartochkani quyidagi shartlarga rioya qilgan holda ishlatish:
- MKHda mavjud qoldiq doirasida;
 - Kartochkada ko'rsatilgan muddat davomida.
 - Milliy va Xalqaro to'lov tizimlari qoidalarida asosida plastik kartochkadan foydalanish (shartnomaning 1.10, 1.11 va 1.12 bandlari).
- 4.1.4. Kartochkani qabul qilib olgandan so'ng darhol PINni o'zgartirish;
- 4.1.5. Kartochkani uning amal qilish muddati tugaganda, uni yangisiga almashtirganda yoki uning qaytarilishini Bank talab qilganda hamda mazkur shartnoma bekor qilinganda qaytarish;
- 4.1.6. Yashash manzili yoki pasport ma'lumotlar o'zgarganda darhol bankka xabar berish;
- 4.1.7. Kartochka yo'qolganda, o'g'irlanganda yoki yaroqsiz holga kelganda hamda undan foydalanish ruxsat etilmagan holatlar yuzaga kelganda, mazkur holatlar yuzasidan Bankni qisqa muddatda xabardor qilish;
- 4.1.8. Kartochka egasi tomonidan amalga oshirilgan noto'g'ri ("sboyn") va kechikkan tranzaksiyalarni qayta ishlash natijasida yuzaga kelgan qarzdorliklarni qoplash;
- 4.1.9. Bank tarifiga asosan bank komissiyasini to'lash.
- 4.1.10. Mazkur shartnomaning 2.1.9 bandi asosida bank tomonidan ushbu amaliyotlarni amalga oshirish jarayonlari bo'yicha xarajatlarni oldindan to'lab berish.

5. PLASTIK KARTOCHKA EGASINING XUQUQLARI

- 5.1.1. Kartochka egasi quyidagi xuquqlarga ega:
- 5.1.2. MKH qoldig'ini cheklanmagan miqdorda to'ldirish, agar boshqa holatlar qonunchilikda ko'zda tutilmagan bo'lsa;
- 5.1.3. MKXdagi aylanmalar bo'yicha vaqti vaqti bilan ko'chirmalar olish;
- 5.1.4. MKXdan chiqim qilingan muzokarali amaliyotlar bo'yicha Bankka yozma murojaat taqdim qilish;
- 5.2. Kartochka egasi SXN dan kelib tushmagan mablag'lar bo'yicha to'lovlarni qaytarish amaliyotini o'tkazishni Bankdan talab qilish huquqiga ega emas.
- 5.3. Kartochkani yozma murojaati yoki masofaviy bank xizmatlaridan foydalangan holda bloklashi mumkin;

6. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

- 6.1. Bank javobgarligi quyidagilar:
- 6.1.1. Kartochka egasidan yozma ariza qabul qilib olingan kundan kechiktirmasdan kartochkani "stop-list" kiritish yoki kartochka harakatini to'xtatish choralarini ko'rish;
- 6.1.2. Mazkur shartnoma shartlaridan kelib chiqadigan barcha majburiyatlarining ijrosi yuzasidan javobgar;
- 6.1.3. Bank distansion bank xizmatlari bo'yicha javobgar hisoblanmaydi, agar kartochka egasi mazkur xizmat turiga o'zicha ulangan bo'lsa;
- 6.1.4. Bank kartochka egasi tomonidan kartochkani yo'qotilgan vaqtdan mijozning yozma arizasi asosida kartochkani "stop-list"ga kiritilgan vaqtga qadar (shu vaqt oralig'ida) kartochkani uchinchi shaxslar tomonidan foydalanilganligi uchun javobgar hisoblanmaydi;
- 6.1.5. Bank qo'yidagi holatlarda javobgarlikni o'z zimmasiga olmaydi:
- Kartochka egasi shartnoma shartlarini bajarmaganda;
 - Kartochka egasining ehtiyotsizligi tufayli uchinchi shaxslar tomonidan kartochka ishlatilganda yoki PIN-kodlar uchinchi shaxslarga berilganda;
 - Bankning o'z majburiyatlarini bajarmasligi uning nazorati doirasidan tashqarida bo'lsa;
 - Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga hamda terrorizmni va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish sohasidagi qonun hujjatlariga muvofiq Karta hisobvarag'i bo'yicha operatsiyalarni amalga oshirishni to'xtatib turish va pul mablag'larini ishga solmay to'xtatib qo'yilgani uchun;

- Mijozni lozim darajada tekshirish uchun hujjatlarni va ma'lumotlarni, shu jumladan bankning ichki Qoidalarini doirasida amalga oshirilayotgan operatsiyalar bo'yicha ko'shimcha ma'lumotlarni Mijoz tomonidan o'z vaqtida yoki umuman taqdim etilmaganligi hollarida;
- Fors-major holatlarida va Bankka bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra Bank o'z majburiyatini bajara olmagan hollarda;
- Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga hamda terrorizmni va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish sohasidagi qonun hujjatlariga muvofiq Karta hisobvarag'ini ochish va Bank kartasini chiqarishni yoki karta hisobvarag'i bo'yicha operatsiyalarni amalga oshirish rad etilgan hollarda;
- Mijoz transchegaraviy pul o'tkazmalarni amalga oshirganda, Bank vakolatli organlar va/yoki vakillik banklari tomonidan negativ choralar qo'llanganligi (operatsiyalarni to'xtatib turish, pul mablag'larini blokirovka qilish, to'lovni rad etish va h.k.) uchun javobgar bo'lmaydi va har qanday sanksion cheklovlar ta'sirida Bank tomonidan ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlari bajarilmagan yoki lozim darajada bajarilmaganligidan kelib chiqqan, Mijozga yetkazilgan zararlarni to'lash javobgarligidan ozod qilinadi.

6.2. Kartochka egasi javobgarligi:

- 6.2.1. Kartochka egasi mazkur shartnoma shartlari va qoidalarini o'zi tomonidan buzilishi natijasida bankka yetkazilgan zarar summasini qoplash bo'yicha javobgar hisoblanadi;
- 6.2.2. Kartochka egasi o'zi tomonidan bankka taqdim etilgan ma'lumotlarning to'g'riligi bo'yicha javobgar hisoblanadi;
- 6.2.3. Kartochka egasi mazkur shartnoma shartlaridan kelib chiqadigan majburiyatlarning bajarilishi yuzasidan javobgardir.
- 6.2.4. Kartochkadan urnatilgan PIN orkali amalga oshirilgan barcha amaliyotlarga, shuningdek mobil ilovalardan utkazilgan amaliyotlarga javobgardir.
- 6.2.5. Tomonlar O'zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi qonunchiligi talablarini hamda Bankning korrupsiyani oldini olish va unga qarshi kurashish bo'yicha Siyosati talablarini qat'iy bajarish majburiyatini oladilar.

7. FORS-MAJOR

- 7.1. Tomonlar mazkur shartnoma shartlari bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmasliklari yoki lozim darajada bajarmasliklari uchun javobgar hisoblanmaydi, agar ushbu holat shartnoma tuzilganidan so'ng yengib bo'lmas kuch (fors-major) tufayli kelib chiqqan. Yengib bo'lmas kuch vakolatli organlar tomonidan belgilangan tartibda tasdiqlanganidan so'ng fors-major deb hisoblanadi.

8. SHARTNOMAGA QO'SHIMCHA VA O'ZGARTIRISH KIRITISH

- 8.1. Taraflar shartnomaning shartlariga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritishi mumkin.
- 8.2. O'zgartirishlarni kiritilishi kartochka egasi tomonidan taklif etilgan bo'lsa, ular faqatgina har ikki tomon imzolaganidan so'ng kuchga kiradi. Aks holda, shartnomaning 1.9. bandi qo'llaniladi.
- 8.3. Shartnomaning barcha ilovalari va qo'shimchalari uning ajralmas qismi hisoblanadi va ular ijro uchun majburiydir.
- 8.4. Agar tomonlar kelisha olmasalar, shartnomaning amal qilinishi mazkur shartnomaning 9.2. bandiga muvofiq bekor qilinadi.

9. SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATI VA UNI TUGATILISHI

- 9.1. Ushbu shartnoma bir yil muddatga tuziladi va avtomatik ravishda navbatdagi muddatga uzaytiriladi, agar biror bir tomon shartnomani amal qilish muddati tugagunga qadar 30 kun ichida shartnomani tugatish bo'yicha yozma xabar bermasa.
- 9.2. Shartnoma biror bir tomonning taklifiga ko'ra ikkinchi tomonga yozma ma'lumot yuborish orqali muddatidan oldin bekor qilinishi mumkin.
- 9.3. Kartochka egasi shartnoma harakatini tugatish jarayonida shartnoma bekor qilinguncha amalga oshirilgan yoki bekor qilinganidan so'ng kartochkani o'z vaqtida bankka qaytarilmasligi sababli kelib tushgan barcha tranzaksiyalar bo'yicha to'liq javobgarlikni o'z zimmasiga oladi.
- 9.4. Shartnoma harakatini tugatish jarayonida kartochka egasi kartochkani bankka qaytaradi hamda MKHdagi qoldiq mablag' esa barcha shartlar bajarilganidan so'ng kartochka egasiga qaytarib beriladi.
- 9.5. Mazkur Shartnoma O'zbekiston Respublikasining jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, terrorizmni va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo'yicha qonun hujjatlari talablariga muvofiq bekor qilinishi mumkin.

10. MAXFIYLIK

- 10.1. Kartochka egasi, Bank kabi, shartnoma bo'yicha maxfiylikni saqlash uchun javobgardir.
- 10.2. Kartochka egasi va u tomonidan amalga oshirilgan amaliyotlarning sir saqlanishini Bank kafolatlaydi.
- 10.3. Kartochka egasi va kartochkadan foydalangan holda u tomonidan o'tkazilgan amaliyotlar to'g'risidagi ma'lumotlar istisno tarzida va faqat qonunchilikda ko'rsatilgan tartibda uchinchi shaxslarga taqdim etilishi mumkin.

11. NIZOLAR HAL ETILISHI

- 11.1. Shartnoma shartlarini bajarish jarayonida tomonlar o'rtasida yuzaga keladigan nizolar har ikki tomondan o'zaro ma'qul bo'lgan qarorga kelish maqsadida ko'rib chiqiladi.
- 11.2. Yuzaga kelgan kelishmovchiliklarni muzokara yo'li bilan hal qilish imkoni bo'lmasa, tomonlar o'rtasidagi kelishmovchiliklar qonunchilikda ko'rsatilgan tartibda hal etiladi.

12. YAKUNIY QOIDALAR

- 12.1. Mazkur shartnoma teng yuridik kuchga ega o'xshash ikki nusxada tuzilgan bo'lib, har bir tomon uchun bir nusxada, tomonlar imzolagan vaqtdan boshlab kuchga kiradi.

13. TOMONLARNING MANZILLARI:

ATB «Turonbank» _____ BXM

MANZIL:

STIR:

Pasport seriyasi ____ № _____
berilgan _____

MFO:

Telefon:

Imzo _____

Yurist _____

Yashash manzili _____

tel. _____

**Shartnoma shartlari va amaldagi bank tarifi bilan
tanishdim.**

Imzo _____